

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishi talabalarida ekologik kompetentlikni rivojlantirishning metodologik asoslari

Abduraxmanova Sh. A, JDPU, o‘qituvchi.

shohista_4602@mail.ru

Annotatsiya. Talabalarining ekologik kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish konsepsiyasini yanada aniq va to‘g‘ri asoslash uchun, avvalo, “konsepsiya” tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz. Falsafiy nuqtai nazaridan “konsepsiya” yoki konsept (lot. conceptio-tushunish, tizim) — ob‘ekt, hodisa yoki jarayonni muayyan tushunish (izohlash, anglash) usuli; mavzu bo‘yicha asosiy nuqtai nazar; ularni tizimli yoritish uchun yo‘naltiruvchi g‘oya. “Konsepsiya” atamasi ilmiy, siyosiy yoki boshqa faoliyatda etakchi g‘oyani, konstruktiv tamoyilni ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Kalit so‘zlar. Ekologik kompetentlik, konsepsiya, konstruktiv tamoyil, didaktik tamoyil, integratsion didaktika, differensiallash, konseptual model, metodika.

Абстрактный. Для более четкого и корректного обоснования концепции формирования экологической компетентности учащихся на основе интегративного подхода обратимся сначала к понятию «концепция». С философской точки зрения «концепция» или понятие (лат. conceptio — понимание, система) — это определенный способ понимания (объяснения, осмысления) объекта, явления или процесса; основная точка зрения по теме; руководящая идея для их систематического освещения. Термин «концепция» также используется для обозначения руководящей идеи, конструктивного принципа в научной, политической или иной деятельности.

Ключевые слова. Экологическая компетентность, концепция, конструктивный принцип, дидактический принцип, интегративная дидактика, дифференциация, концептуальная модель, методология.

Abstract. In order to more clearly and correctly substantiate the concept of developing students' ecological competence based on an integrative approach, we will first dwell on the concept of "concept". From a philosophical point of view, "concept" or concept (lat. conceptio - understanding, system) is a method of certain understanding (explanation, comprehension) of an object, phenomenon or process; a basic point of

view on a topic; a guiding idea for their systematic coverage. The term "concept" is also used to denote a leading idea, a constructive principle in scientific, political or other activities.

Keywords: Ecological competence, concept, constructive principle, didactic principle, integrative didactics, differentiation, conceptual model, methodology.

Metodologik tamoyil va yondashuvlar (tizimli, kompetentli, faoliyatli, integrativ) didaktikaning konseptual apparati va o‘qitish mexanizmlarini nazariy tushunish sohasida ham, haqiqiy pedagogik amaliyotda ham pedagogik izlanishning umumiy tendensiyasi va yo‘nalishini o‘zgartirdi. Bu sohalardan biri integrativ didaktikadir.

Konseptual modelga asoslangan didaktik modelni ishlab chiqishda quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandik: tizimli, kompetentli, faoliyatli va integrativ.

Metodik modelni ishlab chiqish ushuni metodologik yondashuvlarni tanlash talab etiladi. Umumiy ma’nodagi yondashuv “bu texnikalar, uslublar to‘plami xisoblanadi [2]

Yondashuvni E.P.Semenyuk “ilmiy tadqiqotning faqat ilmiy yo‘nalishini o‘ta qat’iy ifoda etuvshi, uni, qoida tariqasida, ma’lum bir jihat bilan sheklaydigan, lekin usuldan farqli o‘laroq, sheklangan mantiqiy-epistemologik va uslubiy shakllanish” deb ta’riflaydi, ushbu jarayonda har qanday sheklash va hatto tadqiqot o‘tkazilayotgan vositalarni aniq belgilash kerak bo‘ladi [4, 116-b].

Tadqiqot olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasidagi "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining talqinlarini tahlil qilishda V.P.Savchuk tushunchalarga tayandik: Kompetensiya - bo‘lajak muhandislarning ishlab chiqarish kasbiy faoliyatida unumli va sifatli foydalanishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikma, kasbiy ta’limi usullari majmuini qo‘llash qobiliyati yoki kasbiy faoliyatga tayyorligidi; kompetentlik - bu shaxsning kasbiy faoliyat subektiga va uning shaxsiy sifat va fazilatlariga munosabatini o‘z ichiga oluvchi kompetensiyalarni egallashidir.

Ta’lim sohasi va mazmuni sharoitlarida integrativ yondashuv asosidagi topshiriqlarni yangicha tushunish jarayonlarida talabalarining ekologik kompetentligini rivojlantirish mohiyatini haqiqatdan tushunish muammosi mavjud.

Metodologik yondashuvning mohiyati uni aks ettiruvchi tamoyillarga asoslanadi:

1) yaxlitlik tamoyili modelni quyi tizimlarga ajratish, yaxlitlik sifatida modelni tashkil etuvchi quyi tizimlarning integrativ invariant aloqalari va munosabatlarini aniqlash imkoniyatini ta’minlaydi;

2) maqsadlilik tamoyili modelni doimiy takomillashtirish va rivojlantirishni

ta'minlaydi;

3) differensiallash va integrallash tamoyili bir tomondan modelning har bir tuzilmaviy komponentini differensial ko'rib chiqishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, uning komponentlarining muhim xossalari va xususiyatlari yig'indisida yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqadi;

4) ochiqlik tamoyili modeldan turli maqsadlarda foydalanish, uning tuzilishi va mazmunini sezilarli darajada qayta qurishsiz o'zgartirish, modernizasiya qilish, moslashtirish imkonini beradi.

Integratsion didaktika - pedagogik bilimlarning nisbatan yangi sohasi. Bir qator fanlar (ta'lim nazariyasi, psixologiya, aksiologiya, madaniyatshunoslik va boshqalar) kesishuvida paydo bo'lgan ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini: maqsad, mazmun, o'qitish shakllari, metodlarni tushunishning yangi darajasini; tadqiqot vektorini bilimlar traektoriyalarini izlashga yo'naltirdi.

Integrativ didaktikaning rivojlanishi, bir tomondan, bilimlar jamiyat rivojlanishining texnologik va axborot sur'atlari darajasiga mos kelishi kerak bo'lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bilimni tushunish jarayoni bilan, ikkinchi tomondan aniq ijtimoiy tartib bilan boshlanadi. Bu jamiyatda ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarga emas, balki subekt ichidagi cheklovlar chegaralarini engib o'tishga va sifat jihatidan yangi integrativ bilimlarni ishlab chiqarishga qodir bo'lganlarga bo'lgan talab tobora ortib borayotganidadir. Jahon hamjamiyatining integratsiyasi, shuningdek, ta'lim jarayonining komponentlariga, o'rganishning murakkabligi va tezligiga ta'sir qiladi, shuningdek, ta'lim samaradorligini motivasion va dinamik qayta ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi, yangi ta'lim modellarini qidirishni kuchaytiradi va kognitiv va affektiv komponentlarni birlashtirish orqali talabalarning potentsial shaxsiy zaxiralarini yangilashga qaratilgan texnologiyalar amalga oshiriladi.

Integrativ didaktika muammolarining alohida bloki globallashuv, ta'lim maqsadlarini umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqish bilan bog'liq. Globallashuv “bilimlar jamiyati”, yaxlit, boy bilimlar qadriyatlariga yo'naltirilgan jamiyatni shakllantirish omillaridan biridir [5]. “Agar bu odamlar tabiat va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatini anglasalar, har doim odamlarni birlashtiruvchi maqsad va g'oyalarni topish mumkin”[7, 135-b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarda innovatsion rivojlanish konsepsiyasi. BMT ning “Innovatsion siyosat va texnologiyalar transferi sohasida qo'llab-quvvatlash” loyihasi. –Toshkent, 2011 yil.
2. Andreeva N.D. Metodika obucheniya biologii. Istoriya stanovleniya i razvitiya. Ucheb. pos. dlya akadem. bakalavriata. Izd. 2. –M.: Izdatelstvo Yurayt, 2018.
3. Berkaliev T.N., Zair-Bek E.S., Tryapishina A.P. Innovatsi i kachestvo obrazovaniya: Nauchno- metodicheskoe posobie dlya pedagogov innovatsionnykh shkol. Spb.: KARO, 2007.
4. Duranov M.E. Pedagogicheskiy proess i pedagogicheskaya deyatelnost: problemy, issledovanie i organizatsiya: Monograf. / - M: GIS VLADOS, 2009.
5. Izbasarova R.Sh., Mansurov B.A., Jumagulova K.A. Sovremennyye texnologii obucheniya v prepodavanii estestvennykh nauk. Uchebno-metodicheskoe posobie. - Almaty: Ulagat, KazNPU im. Abaya, 2014.
6. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: TDPU , 2019.
7. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi/ Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU , 2013
8. Titov E.V. Metodika primeneniya informatsionnykh texnologiy v obuchenii biologii/ E. V. Titov, L. V. Morozova. –M.: Akademiya, 2010.
9. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo'janazarov O'., Tog'ayeva G. “Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, –Toshkent, 2017.